

Ona yurti - oltin beshig

# TONG yulduzi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN»  
XAYRIYA JAMG'ARMASI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Sotuvda erkin narxda

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 48-49 (66433-66434)

2003 yil 8 dekabr dushanba

8 DEKABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

## KONSTITUTSIYA - BAXTIMIZ O'FTOBI



ЎЗБЕКISTON  
РЕСПУБЛИКАСИНING  
КОНСТИТУЦИЯСИ

Istiqbolimiz sharofati bilan, nurli kelajak sari dadil odimlayotgan ona vatanimizda Baxtimiz qomusi-Konstitutsiyamizning qabul qilinganiga 11 yil to'ldi. Bu davr o'ziga xos rivojlanish, yuksalish va ulg'ayish davri desak mubolag'a qilmaymiz. Qonun ustuvorligi uning o'z xalqiga xizmat qilishidir. Konstitutsiyaning asl negizi el manfaati, millat ravnaqidir. Baxtnoma kitobimiz-yurtimiz konstitutsiyasida bizning bilim olishimiz, komil inson bo'lib voyaga yetishishimiz alohida qonun asosida belgilab qo'yilgan. Iqtisodiy va Ijtimoiy

huquqlar deb nomlangan IX bobning 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir»-deb yozilgan. Bunga ko'ra har-kuni maktabga borishimiz, darslarni puxta o'zlashtirishimiz shart. Ba'zida sababsiz dars qoldirib, ko'chada bekor yurgan o'quvchilarni ko'rsam, ensam qotadi. Axir dunyoning ko'plab mamlakatlarida ocharchilik, sovuq urushlar tufayli bolalar o'qish va yozishdan mahrum-ku. Tanamizga chuqurroq o'ylab ko'rib, yurtimizda biz bolalar uchun qilinayotgan g'amxo'rlikdan faxrlanishimiz lozim. Har kungi dars saboqlaridan ertangi kun uchun nimanidir o'rganib, yangilikka intilsak ana shu g'amxo'rlikni qadrlagan bo'lamiz. Agar ustozlarimizdan ko'proq narsalarni so'rasak, albatta ular o'rgatishadi. Buning uchun esa har bir o'quvchining o'zida qiziqish, intilish bo'lishi kerak. Nega o'zimiz uchun sharoitlar yaratmaymiz? Masalan, turli to'garaklarga, tadbirlarga qatnashsak nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Vatanimiz biz uchun hamisha g'amxo'rlik qilar ekan, biz ham uning ravnaqiga o'z hissamizni qo'shaylik!

Mohinur HAYDAROVA,  
Sobir Rahimov tumanidagi 165-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

## QONUNIMIZ - FAXRIMIZ

Taqdirimiz bitilgan,  
Kelajakka intilgan.  
Biz yoshlarning huquqi,  
Unda bayon etilgan.  
Qonunimiz yaxshi bil,  
Uni doim hurmat qil.  
Har bobi, har bandiga,  
Sen doimo amal qil.  
Qonunimiz faxrimiz,  
Buni bilib qo'y yaxshi.  
Usiz baxtimiz butmas,  
Udir hayotning naqshi.

Kamola SHARIPOVA,  
Toshkentdagi  
187 - maktabning  
5 - «A» sinf o'quvchisi.

## BUYUK ALLOMA

Ulug' alloma bobomiz Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi qadimiy Buxoroda keng nishonlandi. Ushbu sananing YUNESKO qarori bilan xalqaro miqyosda nishonlanishi G'ijduvoniy hazratlari ilmiy merosini o'rganish borasidagi yangi tadqiqotlarga imkoniyat yaratdi.

*Bobolar ruhini shod etib*

Yubiley munosabati bilan alloma hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar o'tkazildi, yangi kitoblar nashr etildi. Naqshband va G'ijduvoniy maqbara-majmualari atrofida ulkan bog' barpo etildi.

Abduxoliq G'ijduvoniy hazratlari odamlarni poklik, to'g'rilik, halollikka boshlagan. O'z shogirdlari uchun odob-axloqqa oid bir nechta qonun-qoidalar ishlab chiqqan. Uning bizgacha yetib kelgan «Vasiyatnoma», «Maslak al-orifin», «Maqsad as-solikin», «Risoi sohibiya» kabi kitoblarida ilmu odob, insonning jamiyatdagi o'rni, din va dunyoviy munosabatlar to'g'risida qimmatli fikrlar yuritilgan. Biz o'quvchilar hamisha alloma bobolarimizning bizga qoldirgan ma'naviy meroslarini asrab-avaylaymiz. Ularni o'rganamiz va qadrlaymiz.

Asliddin NURMATOV,  
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi  
65-maktabning 5-sinf o'quvchisi



Qarashlari beg'ubor, qiziquvchan qizgina,  
Bolalikning baxt izlar yo'llarida turibsan.  
Tiyrak ko'zlaring uqib olaqolsin tezgina,  
Tilsimlarni tilimlab, baxt kalitin va ko'rsin:

Olam juda keng, ammo bizning kosmos asrda  
Bor-yo'g'i to'qson minut, to'qson minutlik yo'ldir  
Buyuk hamda suyuk bu ona yerni asrashda  
Shunday tiyrak ko'z bilan hamisha sergak bo'lgin!

U o'zining bilimdonligi, qiziquvchanligi bilan tengdoshlariga o'rnak. Qolaversa, olamni bilimdon va qiziquvchanlar yashnatib kashf etadi. Shunday emasmi?..

Suratda: Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 263-o'rta maktabning 4- «G» sinf o'quvchisi Mohidil PARPIYEVA.

## SHARPALAR BAYRAMI

Aytishlaricha, angliyalik bolalarning o'z sevimli bayramlari



bor ekan. Shu kuni ular turli sharpalarning qiyofasiga kirib olib, bir-birlarini qo'rqitishga harakat qilishar ekan. Kimning niqobi, libosi qo'rqinchliroq chiqsa, o'sha g'olib sanalarkan.

Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi Nizomiy nomli 1-

qaror qilishdi. Sinf o'quvchilari «Sharpalar» va «Sehrgarlar» deb nomlangan ikki guruhga bo'linib, o'zaro kuch sinashdilar. Qiziqarli o'tgan bellashuvda «Sharpalar»ning qo'li

maktabning Gulchehra Otayeva rahbarlik qilayotgan 8 - «A» sinf o'quvchilari ham angliyalik tengdoshlari bayrami - «Hallaw'e'n» kunini nishonlashga

## Antiq bellashuv

baland keldi. Kechada faol ishtirok etgan «Kamolot» yoshlar tashkilotining tuman sardori Manzura Oripova, a'lochi o'quvchilardan Zafarbek Mirzayev, Kumush Rajabova, Shirin



Rajabova, Murod Ildarovlarning ko'z ilg'amas sharpalarnikidek liboslari, «qo'rqinchli» xatti-harakatlari nafaqat yig'ilganlarga, balki maktab direktori Safargul Alimovaga, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor muovini Yusufboy Ahmedovlarga ham juda ma'qul bo'ldi.

Ilvira OTAMURODOVA.  
Suratlarda: Sharpalar bayramidan lavhalar.  
Suratkash: Sherbek IBROHIMOV.



# «SADKO» DA HAR KUNI BAYRAM

Zarafshon shahrimizda shinam va ko'rkam, zamon talablariga javob bera oladigan maktabgacha ta'lim muassasalari talaygina. «Sadko» nomli 16-son bolalar bog'chasi ana shulardan biri. Bog'chaga ish faoliyatini dastlab shu bog'chada tarbiyachilikdan boshlagan Sayyora Olimova mudiralik qilib kelyapti. Bolalarga mehri bo'lakcha bo'lgan Sayyoraxon har tong ishni bog'cha kichkintoylarini iliq qarshi olishdan boshlaydi. Har biri bilan alohida salomlashadi, kayfiyatlarini ko'taradi, biroz injiqlik qilib kelayotganlari bo'lsa, yaxshi gap bilan erkalatib, o'z guruhigacha kuzatib qo'yadi.


«Biz qushlarni sevamiz», «Gullar bilan do'stlashamiz», «Baliqlar nima deyishadi?» kabi bayram ertaklari, qiziqarli o'yinlar orqali bolajonlar qalbida ona tabiatga, jonivorlarga nisbatan mehr tuyg'usi shakllantiriladi. Bunday tadbirlarga bolalarning sevimli

bolajonlar bajonidil ishtirok etishadi. Turli sport musobaqalari tashkilotchisi Natalya Valeryevna sportning ahamiyati, irodani toblab, aniq maqsad sari intiluvchan, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan qilib tarbiyalashi haqida bolalarga juda ko'p gapiradi.

Bog'chada tarbiyalanuvchilarning huquqiy madaniyatini oshirishga ham alohida ahamiyat beriladi. Ona vatani, tug'ilib-o'sgan shahri, qishlog'i, mahallasi, xalqi, urf-odatlarini, respublikamiz ramzlariga hurmat bilan

## Ibrat

bog'chadagi cho'milish havzasining muntazam ishlab turishiga katta ahamiyat beradi. Ota-onalar hamda «Zarisark» nomli homiy tashkilotning ko'magi bilan ta'mirlangan havzada bolajonlar qishin-yozin miriqib cho'milishadi, suzish musobaqalari uyushtirishadi. Suv aerobikasi, gidro aerobika, turli xoreografik kompozitsiyalar hosil qilish kabi mashg'ulotlar kichkintoylar uchun qiziqarli bo'libgina qolmay, umurtqa pog'onalarining to'g'ri rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi.



Ustozlari V.P.Pavlova, G.N.Karpuch, N.Ivanova, N.N.Vyatkinlardan olgan saboqlari asosida ish yuritib, tez orada nafaqat bolajonlarning, balki ularning ota-onalari, hamkasblari mehrini ham qozona olgan Sayyoraxonning tashabbusi bilan bog'chada ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Kichkintoylarni ekologik, estetik, musiqiy, ma'naviy-ruhiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan mazkur bog'chada o'tkaziladigan har bir tadbir aynan shu maqsadlarga yo'naltiriladi. Bolalarga atrof-muhitni avaylab-asrash zarurligi, nosog'lom ekologik muammoning sabablari haqida boshlang'ich ma'lumotlar mashg'ulotlar asosida berib boriladi.

tarbiyachilaridan biri Mo'mina Izzatovna bosh-qosh bo'ladi.

Bolalarning ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishlarida nafas tarbiyasi asosiy o'rin tutishini yaxshi bilgan tarbiyachilar kichkintoylarda chiroyli tasviriy asarlardan zavqlana olish, ranglardan to'g'ri foydalanib, loydan yasalgan narsalarni bo'yoqlar yordamida jonlantirish kabi qobiliyatlarini ilk yoshdanoq rivojlantira boradilar. Shuningdek, ularga uyda, ko'chada, mehmonda o'zini tutish odobi, muomala madaniyati, mehnatga moyillik kabi odatlar ham o'rgatib boriladi. Mohir tarbiyachi Matluba Ubaydovna uyushtiradigan «Jajji go'zal», «Balli quvnoqlar», «Mo'jizalar maydonchasi» kabi shou-dasturlarda

qarash kabi fazilatlarini shakllantira borish maqsadida «O'zbekiston Vatanim mening», «Mening huquq va burchlarim» kabi tadbirlar o'tkazib turiladi.

Cho'milish bolajonlarning jonu dili. Qolaversa, ularning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib kamol topishlari, asablari mustahkamlanishi, uyqu va ishtahaning yaxshilanishi, tananing chiniqishida asosiy omillardan biri ekanligini yaxshi bilgan mudira

Tugmacha va munchoqlardan yasalgan gilamchalar, dengiz toshlari va chig'anoqlari solingan qutilar, ichiga tosh hamda rezina halqachalar solingan gilamchalarning ustida yurgan bolajonlarga yassi oyoqlilik xastaligi ham xavf sololmaydi.

Jajji bolajonlarni bejiz navniholga qiyoslashmaydi.

Ularning sog'lom ulg'ayishlari, komil inson bo'lib shakllanishlari har jihatdan bolalikdagi tarbiyaga bog'liq. «Sadko» bolalar bog'chasi jamoasi buni juda yaxshi bilishadi va shu maqsadda astoydil mehnat qilishadi.

Biz ham ularning ezgu ishlariga omadlar tilab qolamiz.

**Maxfirat QURBONOVA,**  
Navoiy viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi maktabgacha ta'lim mutaxassisi.



## KAPALAK

Erta-yu kech Yorqinjon, -Oyimning kapalagi,  
Kapalak tutar. Uchib ketibdi.

Bu holni ko'rgan Omon, Kundaligimni ko'rib  
Savolga tutar: Qochib ketibdi.

«Yorqin, kapalaklarni, Shuning uchun kapalak,  
Nima qilasan?» Tutib tinmayman.

Ovchiligim sirini, Lekin o'sha kapalak,  
Hozir bilasan: Qaysi, bilmayman.

**Dilrabo DO'STQOBILOVA,**  
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi  
118-maktabning 6-sinf o'quvchisi.

## PARILAR QISHLOG'I

Men tug'ilib o'sgan qishloq - Olmosni parilar qishlog'i deyishadi. Qishlog'imiz nomi Olmos hamda Parilar mahallasi xususida ko'plab rivoyatlar mavjud. Shulardan biri - qishlog'imizdagi katta masjidni azaldan baliq masjid deyishadi. Chunki uning hovlisida hovuz bo'lib, unda katta-katta baliqlar suzib yuradi. Rivoyat qilishlaricha, bir

### Qishlog'ingiz tarixini bilasizmi?

paytlar go'zal ayol-pari bir mahalladan chiqib, o'sha hovuz bo'ylab aylanar, baliqlarga tikilib o'tirarkanda, yana o'sha mahallaga kirib ketarkan. U ayolning aynan qaysi uyda istiqomat qilishini hech kim bilmas ekan. Shuning uchun ham o'sha ayol kirib ketadigan mahallani Parilar mahallasi deb nomlashgan ekan. Bu mahalla hozir ham mavjud. Aynan shu yerda istiqomat qilayotgan qizlarning husni-jamoli ta'rifi Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida, Ozod Sharafutdinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa shoir va tarixshunoslarning asarlarida tilga olinganligi ham bejiz emas. Avvalgi udumga ko'ra bu qizlarning qoni o'zga qon bilan chatishib ketmasligi uchun hatto qo'shni qishloqqa ham uzatishmagan ekan. Baliq masjiddagi hovuz esa hozirda ham shifobaxshligi bilan mashhur. Sariq kasalligiga chalingan bemorlar shu yerga kelib, hovuzdagi baliqlarga tikilib, shifo so'rasa, albatta sog'ayib ketishadi.

Olmos nomini ba'zilar bir paytlar qishlog'imizdan juda katta xazina topilganidan kelib chiqqan deyishsa, boshqalar Tolmas nomidan kelib chiqqan deyishadi. Tolmas - bu charchamas ma'nosidir. Haqiqatan ham hamqishloqlarim mehnatda toblangan. Ular charchoq nima bilishmaydi. Shunga yarasha chiroyli yashashadi...

Menga o'zim yashayotgan joyga mehr bilan qarashni o'rgatgan, qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab bergan ustozlarimdan behad minnatdorman. Dil izhorimni quyidagi she'rimda bayon etmoqchiman:

### USTOZLAR BORKI...

Qo'lga tutqazar ilm kalitin,  
Shul darvozani ochsak katta baxt.  
Turar ajabo! Ulkan zinalar,  
Qiynalmay chiqsak, olamiz bir taxt.  
Osmonni to'sgan qora pardani,  
Ochadi sekin bizni yetaklab.

Oyni, yulduzni ko'rsatar uzoq,  
Keyin parvozni qiladi talab.  
Har bir nutqida hikmatli so'zlar,  
Shirin bolidan huzur qilaman.  
Shunday ustozlar bo'lganiga men,  
Ollohga ming bor shukr qilaman.

**Sevara ULKANOVA,**  
Namangan viloyati, Chust tumanidagi 52-ixtisoslashgan maktabning  
9-sinf o'quvchisi.

Nihoyat, muallif kitobiga yozilgan so'zboshida qayd etilishicha, salkam o'n yildan so'ng, atoqli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayevning yangi kitobi-«Saylanma»sining birinchi jildi «Sharq» nashriyot matbaa aksiyadorlik

turnalar uchib o'tadiyu, bittasi Xolmirzayevlar xonadoniga qulab tushadi. Turna ko'zdan kechirilsa, u cho'loq ekan. Boz ustiga, hali yoshgina edi. Bolalar darhol onalariga xabar berishadi. Onaxon turnani parvarish

Adabiyotimizda qushlar hayoti orqali insoniy munosabatlar aks ettirilgan asarlar silsilasi hazrat Navoiyning «Lison ut-tayr» asaridan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari ham

Zero, qushlar ham Vatanimizning to'laqonli egalaridirlar. Ular nafaqat issiqlik, yemish uchun qaytib keladilar, ayni chog'da ularni SOG'INCH Vatanga yetaklaydi.

Hayotda ro'y bergan voqeada turna shafqatsizlarcha o'ldiriladi. Biroq, yozuvchi hikoyani fojia bilan yakunlamaydi. Cho'loq turna yaxshi insonlar panohida yashay boshlaydi. Endi uning taqdiri qanday bo'ladi? Nahotki qafasda bir umr yashasa?..

Biz uchun hikoya tugamaydi. Mutolaadan so'ng, o'zimizcha uni davom ettiramiz, xayolimizda turnani parvarishlab, qo'limizdan kelgancha yordam beramiz. Menimcha, maktablarda «Cho'loq turna» hikoyasining davomi» sarlavhasi ostida erkin mavzuda insho yozish kerak. Shunda murg'ak qalblarimizda Vatanga muhabbat tuyg'usi shakllanadi.

**Kamola HAQQULOVA,**  
Toshkent shahar,  
O'rol Tansiqboyev nomidagi  
256-maktabning  
10-«A» sinf o'quvchisi.

## «CHO'LOQ TURNA»NI O'QIGANMISIZ?

kompaniyasi tomonidan chop etildi. Biz ilgari ham varaqlari titilib ketgan, muqovalarining rangi o'chib ketgan «Hayot abadiy», «Og'ir tosh ko'chsa...», «Bodom qishda gulladi» kabi kitoblarni maktab kutubxonasidan olib o'qiganmiz. Maktab darsliklariga kiritilgan ayrim asarlarining «g'oyaviy mazmuni» bilan imkon darajada tanishganmiz. Lekin malikali «oshpaz» tomonidan tayyorlangan taomni tanov vul qilish boshqa, uning ta'rifini eshitish boshqa narsa ekanini mutolaa davomida to'la-to'kis his etdik. Xususan, Shukur Xolmirzayevning «Cho'loq turna» hikoyasi kitobiy tasavvurlarimni ag'dar-to'ntar etib yubordi.

Xo'sh, bu hikoya nima uchun yozilgan? Adib qushlar hayotini qanday qilib yaqindan o'rgangan ekan? Yozuvchining taniqli bir adabiyotshunos olim bilan suhbatida e'tirof etilishicha, Shukur bobo tog'li Boysun tumanida tug'ilib o'sgan, qushlar hayotini bolaligidan sinchiklab kuzatgan, o'zi ham ov bilan shug'ullangan, ayniqsa, kaklik ovini yaxshi ko'rar ekan.

Bir kuni osmonda qatorlashib

qiladi, davolaydi. Xullas, turnalar bahor chog'ida Boysunga qaytgan, cho'loq turna sog'ayib ketadi. Lekin oqsoq bo'lib qoladi. Bahor kezlari arg'imchoq solib Boysun tomonlarga qaytayotgan turnalar hovlida yurgan cho'loq turnani ko'rib, pastlashadi. Cho'loq turna hali ularning yoniga beradi. Sog' turnalar o'z cho'qilashib, saflariga qo'shilmaydi, uni tashlab, uchib ketishadi. Odamlarga juda o'rganib qolgan cho'loq turna hovlida yashayveradi, lekin parvoz istagi uni tark etmaydi. Bir kuni osmonga ko'tariladiyu, odamlar gavjum bo'lgan bozorga qulab tushadi. Olomon esa o'rluk ushni kaltaklab o'ldirishadi. Bu tabarni eshitgan yozuvchining onasi nihoyatda xafa bo'ladi, yig'lab siqtaydi...

Oradan yillar o'tib, o'sha voqeani guvohi bo'lgan bolakay yetuk yozuvchi bo'ladi va «Cho'loq turna» hikoyasini yaratadi. Sirtidan qaralsa, go'yo bu hikoyada faqat qushlar haqida gap ketayotgandek tuyuladi. Biroq, aslida insoniy munosabatlar qalamga olinadi. Aniqrog'i, qushlar orqali insonlarning insoniy qiyofasi tasvirlanadi yoki ularning g'ayri insoniy basharasi fosh etiladi.

qushlar timsolidagi insoniy munosabatlarga bag'ishlangan. Lekin «Cho'loq turna»ning boshqa asarlardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari bor. Birinchidan, bu asar bizning yuragimizga yaqin, chunki unda bizga tanish zamon, bizga tanish makon tasvirlanadi. Zamon va makon esa, Vatan tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi. Turna Vatanga talpinadi, intiladi va bu yo'lda og'ir mashaqqatlarni boshidan kechiradi.

Menimcha, Vatanga nisbatan «Men seni hech kimga bermayman...», deb ming marta qichqirib, dikir-dikir sakragandan ko'ra, cho'loq turnaga imdod tilagan, unga achingan o'quvchi Vatani ko'proq sevadi. Uning tiriklik olamini ko'z qorachig'idek asraydi.

O'qishdagi uqish

**Tahririyatdan: Hurmatli o'quvchilar! Kamolaxon taklif etgan mavzuda insho yozsangiz, bir nusxasini «Tong yulduzi»ga yuborishni ham unutmang. Biz hay'at a'zolari tomonidan ma'qul ko'rilgan insholarni gazetamiz sahifasida e'lon qilamiz. «A'lo» baho olgan muallifni Shukur Xolmirzayevning «Saylanma» asarining birinchi jildi bilan taqdirlaymiz. (Pochta harajatlarini tahririyatimiz o'z zimmasiga oladi).**

Xatlaringizni kutamiz.

## IBRATLI MAKTAB IBRATI

Maktabim - seni maqtagum

Toshkent viloyatining Zangiota tumani markazida joylashgan Oybek nomli 14-maktab haqida gap ketgudek bo'lsa: -Ha, havas qilsa arziydigan ibratli maktabda, deb qo'yishadi.



Mazkur bilim dargohiga bunday ta'rif bejiz berilmagan. Maktab rahbari bilimdon, tajribali, o'z kasbining fidoiysi bo'lsa, muvaffaqiyatlar o'z-o'zidan kelaverar ekan. 1997 yildan buyon maktabga rahbarlik qilib kelayotgan Muhabbat opa Halilova ana shunday insonlardan biri. Shuning uchun ham bu yerda tahsil olayotgan 1135 nafar o'g'il-qizning otanalari farzandlariga berilayotgan ta'lim-tarbiyadan, ularga saboq berayotgan 120 nafar ustozlaridan minnatdorlar.

O'quv-tarbiya hamda ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha olib borilayotgan ishlarning tuman miqyosida ijobiy baholanishi ham bejiz emas. Maktabda muntazam ishlab

turgan fan, hunar va sport to'garaklari doimo bolajonlar bilan gavjum. O'z bilimlarini ana shu to'garaklarda mustahkamlagan o'quvchilar viloyat miqyosidagi fan olimpiadalarida faxrli 2-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqlab qaytishdi. «Siz qonunni bilasizmi?», «Konstitutsiya olamiga sayohat», «Bola huquqlari konvensiyasi» kabi kecha va tadbirlar o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirsa, «Hosil bayrami», «Balli qizlar», «Quvnoqlar va zukkolar» kabi bellashuvlar



ularning bo'sh vaqtlarini maroqli va mazmunli o'tkazishlariga xizmat qiladi. 5 dekabr kuni Zangiota tumanining 70 yilligini tuman ahli keng tantana

qilishdi. Maktab o'quvchilari ustozlari boshchiligida bu sanaga bag'ishlab devoriy gazetalar chiqarishdi, qiziqarli uchrashuvlar tashkillashdi.

Maktab jamoasining ibratli jihatlaridan yana biri, o'quvchilarning qiziqishlari, iqtidori va imkoniyatlariga qarab yo'naltirila

Shoxidov singari tajribali ustozlar mehr bilan saboq berib kelishyapti.

Mazkur bilim dargohi sport sohasida ham ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan. Ayniqsa, basketbol ishqi bozolari juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayni kunlarda maktabning



bilganlaridadir. O'quvchilar o'z qiziqishlariga qarab ona tili, matematika, tarix, rus tili, ingliz tili

yosh sportchilari «Umid nihollari» musobaqalariga qizg'in hozirlik ko'rishyapti...

Sanayversak, ibratli maktabda amalga oshirilayotgan ibratli ishlarning sanog'i ko'rinmaydi. Nafaqat Zangiota, balki respublikamizda ham shunday maktablar soni ortgandan ortaversin.

**Nargiza AKBAR qizi.**  
Suratkash: **Kolmuhammad TOSHMUHAMMEDOV.**

# BOLALAR UCHUN OSUDA HAYOT

## YUNISEF: ijtimoiy monitoring

Nobel mukofoti sovrindori, BMTning dastlabki tashkiloti, 54 yillik tarixga ega, jahondagi bolalar va onalar huquqini himoya qilish bosh maqsadi bo'lmish YUNISEF xalqaro tashkiloti buyurtmasiga ko'ra, yaqinda Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda MDH davlatlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi tadqiq etildi. Aniqlik kiritadigan bo'lsak, YUNISEF buyurtmasiga ko'ra, Florensiyadagi «Innochenti» tadqiqot markazining yuzlab xodimlari ana shu monitoring ustida ishlab, bu haqda alohida ma'ruzalar tayyorlashdi. Ushbu markaz BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF)ning ilmiy-tadqiqot imkoniyatlarini mustahkamlash va uning butun dunyo bolalari manfaatlarini himoya qilish maqsadida 1988 yil Florensiya (Italiya)da tashkil etilgan.



## «ISLOHOT - ISLOHOT UCHUN EMAS, ISLOHOT - INSON UCHUN»

-BMTning o'tgan yil may oyida jahon bolalarining ahvoriga bag'ishlab o'tkazilgan maxsus sessiyasida ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi tadqiq etilgan 27 mamlakat «bolalar yashashi uchun maqbul dunyo» qurish maqsadida ulkan, ammo amalga oshirish mumkin bo'lgan rejalarni bajarish majburiyatini olgan. Bugungi kunda ana shu 27 davlat hududida 100 million nafardan ortiq bola istiqomat qiladi. Biroq, tadqiqot natijalari bir qator mamlakatlarda bolalar o'limi rasmiy statistikada ko'rsatilganidan bir muncha yuqori ekanligini ko'rsatdi. Eng achinarlisi, tug'ilish va o'lim darajasini aniqlash usullari xalqaro amaliyot me'yorlariga javob bermaydi. Holbuki, bolalar o'limini kamaytirishga erishish - bu nafaqat ushbu mintaqada, balki butun Yer yuzi uchun kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor vazifa sanaladi, -deydi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Brenda Vigo xonim.

O'tkazilgan monitoring birinchi galda dunyo davlatlari Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani og'ishmay va samarali amalga oshirishlarini, farzandlarimiz istagan va ular talab qilishga haqli bo'lgan osuda, tinch va farovon hayotni yaratishlari shart ekanligini yana bir bor ko'rsatdi.

Shunisi quvonchliki, tadqiqot natijalari O'zbekistonda aniq maqsadga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar o'tkazilayotganini namoyish

qildi. Bu bilan mamlakatingizda «Islohot - islohot uchun emas, islohot - inson uchun», degan insonparvar tamoyil asosida siyosat yuritilayotganligini isbotladi.

## SOG'LOM OILA

YUNISEF ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlash, maktab va kasb-hunar texnik ta'limiga sarflanayotgan davlat harajatlari hajmi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistonda eng yuqori ekanligi, iqtisodiy siyosat ijtimoiy siyosat bilan uyg'un tarzda olib borilayotganligini, uning insonparvarlik jihatlarining e'tirofi ekanligini dalillar ko'rsatib turibdi. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining jami harajatlariga nisbatan olganda 2003 yilda maorif sohasiga rejalashtirilgan harajatlar 645 mlrd. 900 mln. so'mni tashkil etmoqda. Bu

budjet harajatlarining 25,9 foizi demakdir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tug'ilayotgan bolalarning atigi 4,7 foizi 20 yoshgacha bo'lgan onalarning hissasiga to'g'ri kelayotganligi ta'kidlanadi. Bu Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan eng yaxshi ko'rsatkichlardan biridir. (Polshada - 7,0 foiz, Vengriyada - 7,4 foiz, Slovakiyada - 9,1 foiz). MDH mamlakatlarida bu ko'rsatkich 8,8 foizdan (Qirg'iziston) 16,3 foizgachani (Moldova) tashkil etadi, deyiladi ma'lumotlarda.

Hali bu sohada ayrim muammolar saqlanib turganligi ko'rinsa-da, unga osonlikcha erishilgani yo'q. Bu mamlakat miqyosida amalga oshirilgan tadbirlar, ayni paytda oila, jamoatchilik olib borgan ma'rifiy ishlarning samarasidir. Y o k i ,

O'zbekistonda 20 yoshgacha bo'lgan onalarning nikohsiz bola tug'ishi

Sharqiy Yevropaning ko'pgina davlatlaridagiga nisbatan uch barobar, Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistondagidan ikki barobar kam bo'lganligini

ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatini foizlar hisobidan baholash oson emas. Uning negizida ma'rifiy, odob-axloq qadriyatlarini, oilaga mas'uliyat bilan qarash orqali kelajak avlodlar taqdiriga befarq bo'lmaslik bilan bog'liq fuqarolik tuyg'ulari mujassamdir.

Mustaqillik yillarida eng katta yutuqlardan biri, O'zbekistonda go'daklarning o'limi keskin kamayganligidir. Ya'ni, ilgari har 1000 nafar chaqaloqdan 38,1 nafari nobud bo'lsa, bu ko'rsatkich istiqol yillarida 18,3 nafargacha tushdi. Bu Markaziy Osiyoda eng yaxshi ko'rsatkichdir.

Onalar o'rtasida ham o'limning keskin kamayishi kuzatilmoqda, ya'ni har 100 ming homilador ayoldan 42,9 nafari hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, bu ko'rsatkich mustaqillik yillarida 33,5 nafargacha kamaydi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda, Qirg'izistonda 43,8, Tojikistonda 45,4 nafarni tashkil etadi.

Er-xotinlar ajrashishining kamayishi O'zbekistonda zamonaviy oila ahvoriga muhim ko'rsatkichi sanaladi. Ma'lumotlarga qaraganda, keyingi 12 yil ichida er-xotinlar ajrashishi bir yarim baravar kamaydi va 100 nikohdan 9,2 holatni tashkil etadi. Masalan,



## Ona bilan bola --

R o s s i y a , Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlarga nisbatan bu ko'rsatkich bir necha marta kam. Ushbu holat fuqarolarimizning ajrashishga salbiy munosabatda (so'ralganlarning 94,8 foizi) ekani bilan ham bog'liq. O'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatganki, ajrashishga nisbatan bunday yondoshuvning asosiy sabablari:

oilaning buzilishi, bolalarning yetim bo'lib qolishi ularning ruhiyatiga, bilim olishi va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ajrashishning o'zbek xalqi an'anaviy-axloqiy asosiga mos kelmasligi hisoblanadi.

«Oilada farzandlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi nimalarda namoyon bo'lishi kerak?», degan savolga yurtdoshlarimiz (56,8 foiz) birinchi o'rinda kattalarga hurmat, deya javob bergan. «Tarbiya bilan kim shug'ullanishi kerak?», degan

savolga so'ralganlarning 72,1 foizi ota-ona birgalikda shug'ullanishi lozim, degan fikrni bildirishgan. Shunisi e'tiborliki, oilada asosiy tarbiyachi ona deb hisoblaydiganlar soni ancha kamaydi (2000 yilda bu ko'rsatkich 10,2 foiz bo'lgan bo'lsa, bu yil 8,9 foizni tashkil etdi). Bu borada otaning (7,8 foizdan 10,9 foizga) hamda buvi va buvalarning roli oshdi (8 foizdan 12,1 foizga).



# MOHIT ABON AYOLSIZ!!!

Azal-azaldan O'zbekoyimlar o'z obro'si, mavqei va hurmati bilan tillarda doston bo'lishgani barchaga ma'lum. Chunki qonimizda hech bir kitoblarga yozilmaydigan, tosh-tarozi bilan o'lchanmaydigan shunday fazilatlar borki, uni boshqa millatda ko'rish dargumon. Andisha, uyat, oriyat, hayo, ibo so'zlarining tagida qanchadan-qancha ma'no bor-a! Buyuk mutafakkirlardan Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning tarbiyasiga, ijodiga, izlanishiga, asrlab yashashlariga sabab - ehtimol ona suti bilan kirgan mehrdir.

Shijoatli To'maris, vafodor yor Nodirabegim, gul bilan lola maslahatgo'y Bibixonim kabi oqila ayollar imkoniyatlari chegaralanmaganida, o'z zamonasida ko'proq amallarni bajargan bo'larmidi?

Ha, erkaklarga mutelik, tobelik, ulardan bir pog'ona pastda turish, yo'lda avval erkak, so'ngra ayol yurishi lozim degan aqida, erkaklar oldidan kesib o'tmaslik kabi illatlarga mana barham berildi. To'g'ri, ularning zamirida andak hurmat saqlanishi lozim. Lekin hukumat miqyosida xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini, ularning yashash va mehnat sharoitlarini va reproduktiv salomatligini himoya qilishni yaxshilashga qaratilgan siyosat ixtisarlari sharofatidandir.

Xotin-qizlar masalasini hal qilish va jamiyatni demokratiyalashtirish - bu bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Ushbu siyosat xotin-qizlar rolini oshirishga qaratilgan 1998 yil - «Oila yili», 1999 yil - «Ayollar yili», 2000 yil - «Sog'lom avlod yili», 2001 yil - «Ona va bola yili», 2002 yil - «Qariyalarni qadrlash yili»da qabul qilingan Davlat Dasturlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda xotin-qizlar mavqeini mustahkamlash uchun ularning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki katta ahamiyatga egadir. Bu manfaatdor vazirliklar va idoralar, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, o'z-o'zini boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat

tashkilotlarining faoliyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy demokratik institutlarning faoliyatiga bog'liqdir.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqqa egadirlar.**

Respublika Prezidenti Islom Karimov va respublika hukumati jamiyat siyosiy hayotida xotin-qizlarning huquqini himoya qilishning barcha choralarini ko'rmoqda.

**BIR QO'LIDA BESHIKNI,**



**BIR QO'LIDA DUNYONI TEBRATAR AYOL**

Respublika aholisining yarmidan ko'prog'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Ular o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi, jamiyat hayotini barcha jabhalarida faol ishtirok etadilar, oliy darajadagi siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etadilar.

O'zbekistonda keyingi yillarda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash va ularning rolini oshirishning milliy mexanizmi shakllangani munosabati bilan xotin-qizlar harakatini rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini namoyon etishga asos yaratildi.

Xotin-qizlar ahvolini yaxshilash milliy mexanizmi qonunchilik va ijroiya hokimiyati darajasida tashkil etilgan. Bu - erkaklar va ayollar o'rtasida to'liq tenglikka erishish, xotin-qizlarning va erkaklarning jamiyatdagi va oiladagi an'anaviy



rolini o'zgartirish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish imkonini beradi.

Respublika Oliy Majlisiga 23 nafar ayol deputatlikka saylangan bo'lib, bu 9,5 foizni tashkil etadi.

Iqtisod, sog'liqni saqlash, maorif va boshqa sohalarda rahbar lavozimida ishlayotgan ayollar 49225 nafarni tashkil etadi.

Oliy Majlis rais o'rinbosari, ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi raisi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), oila va ayollar masalalari komissiyasi raislari xotin-qizlardir.

Xotin-qizlarning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtiroki, ularning teng huquqlilikka erishishdagi eng muhim omillardan biridir.


O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi» Konvensiyasiga qo'shildi.

O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi (1991 yil fevralda tashkil topgan)

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) bilan hamkorlikda ushbu Konvensiyaning bajarilishini kuzatadi va monitoring o'tkazadi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan xotin-qizlarning oiladagi, jamiyatdagi mavqeini oshirishga doir borilayotgan siyosatni oliy barcha amaliyotga tatbiq qilish maqsadida bir qator davlat dasturlari joriy qilindiki, ushbu chora-tadbirlar yurtimizning jami oilalari, xotin-qizlari, farzandlari taqdirida ijobiy samara bermoqda. Shunisi alohida e'tiborga molikki, davlat miqyosida amalga oshirilayotgan ishlarda jonkuyar opa-singillarimiz ham o'z bilimlari, kuch-g'ayratlarini safarbar qilib, faollik ko'rsatmoqdalar.

*Qo'sh sahifani Muharrama PIRMATOVA tayyorladi.*



## XAYOLDAGI TOMOSHA

Xayolim - televizor,  
Istagan ko'raman.  
Unda mingta kanal bor,  
Istagan buraman.  
Xayolimda Quyonvoy,  
Quvib yurar Bo'rini.  
Sichqon esa quritar,  
Mushukvoyning sho'rini.  
Ilon chopib yuradi,  
Fil uchadi osmonga.  
Jimitdek bir kapalak,  
Do'q qilar arslonga.  
Baliq hujum qiladi,  
Timsonga suv ostidan.  
Yo'lbars-chi, bekinadi,  
Shoxdor kiyik dastidan.  
Jiringlaydi qo'ng'iroq,  
Tanaffus boshlanadi.  
Xayoldagi tomosham,  
Birdan tugab qoladi...

## «CHEMPION»

Champion bo'pti Eshmat,  
Tez yugurish bo'yicha.  
Bir necha daqiqada,  
O'tibdi uch-to'rt ko'cha.  
  
Oradan ko'p o'tmasdan,  
Ma'lum bo'ldi hammasi.  
Eshmatvoy «champion»ning  
Tugadi «g'alaba»si.

Mahallada duv-duv gap,  
Kular katta-kichigi.  
Eshmatni quvgan ekan,  
Qo'shnimizning kuchugi!

Yulduz Usmonova Mannon Uyg'ur nomli San'at institutida o'qiydi. Bo'lajak san'atshunos. Qalbidagi bir olam tuyg'ularini she'riy satrlarga muhrlayotgan Yulduz opangizdan: «Nega bolalarga bag'ishlab she'rlar yozasiz?» - deb so'radik. U esa: «Bolalik bilan xayrlashgning kelmas ekan, yozganlarim meni doimo bolalik bilan bog'lab turadi», deya javob berdi. Uning she'rlarini o'qisangiz, o'zingiz bunga ishonch hosil qilasiz.

## YULDUZ USMONOVA:

## -BOLALIK BILAN XAYRLASHMAYMAN!

## KOPTOK

Koptok-chi, qiziq narsa,  
Tepsa bo'lar, o'ng-chapga.  
Goh qattiq, goho asta,  
Yo istagan tarafga.

Endi bilsam, koptokda  
Ixtiyor o'zidasam.  
Shuning uchun koptokka,  
O'xshashlik yaxshiyamas!...

## «SURATXONA»DA

Bir sakrab men yo'lbarsni,  
Ustiga minib oldim.  
Buni ko'rib to'plangan,  
Odamlar hayron qoldi.

Bir yonimda arslon,  
Bir yonimda ayiqvoy.  
Men bo'lsam o'tiribman,  
Hech biridan hayiqmay.

«Bo'ldi endi, tushaqol!»  
Dedilar menga dadam.  
Keyin suratim olib,  
Chiqdik suratxonadan.

## QULOQSIZ PIYOLA

-Nima bo'ldi, Halima?  
Tushdimi biron nima?  
Nima taraqlab ketdi?  
Sinib sharaqlab ketdi?  
-Yuvintirdim idishlarni,  
Qoshiqlar indamadi.  
Hatto choynak, likopcha,  
Kosalar g'ing demadi.  
Faqat bitta piyola,  
Ekan, xo'p yomon bola.  
«Yuvinmayman» deb sira,  
Qo'limdan qochib ketdi.  
Yiqilib tushib yerga,  
Sinig'in sohib ketdi...

## G'ALATI KO'ZGU

Kulhadekkina ko'zgu  
Sovg'a qildilar oyim.  
«Qarab turgin», dedilar,  
Yuz-qo'ling yuvgach doim.  
Ozodaliging ko'rsa,  
U charaqlab ketadi.  
Va sendan ko'ngli to'lsa,  
U yaraqlab ketadi...

Endi har kun ko'raman,  
Unga qarab o'zimni.  
Og'iz, burun, qulog'im,  
Qoshimni, ham ko'zimni.  
Faqatgina bor ekan,  
Bittagina chatog'i.  
Sira ko'rinmas ekan,  
Unda qo'lu-oyog'im!...

## QO'G'IRCHOQ TEATRIDA

Kecha bordik maktabdan,  
«Qo'g'irchoq teatr»ga.  
Butun sinf qarsak chaldi,  
«Uch og'ayni botir»ga.  
Faqat qarsak chalmasdan,  
O'tiraverdim, men jim.  
Qo'g'irchoqni artistlar,  
O'ynatganin bilardim.  
«Sen qayerdan bilasan?»  
Deb so'rashdi bolalar.  
Men aytmadim, ishlashin,  
Teatrd xolamlar...

Yulduz USMONOVA.

## NEGA ISMIM..?

Aziz bolajonlar! Yodingizda bo'lsa, «Nega ismim..?» deb nomlangan yangi rukn tashkil qilgan edik. O'z ismlarining ma'nosini chuqur anglagan tengdoshlaringizdan tahririyatimizga ko'plab maktublar keldi. Ayrim tengdoshlaringiz ismlarining fors, tojik, arab tillaridagi ma'nolariga ham to'xtalib o'tishgan. Bugun ana shunday maktublarning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilmoqdamiz.

## MEN O'QISHNI BILMAYMAN

Men «Tong yulduzi» gazetasini yaxshi ko'raman. Lekin hali o'qishni bilmayman. Unda nega yaxshi ko'raman, dersiz? Har hafta gazetaning yangi soni chiqqanida, dadamlar menga undagi qiziqarli she'r va hikoyalarni o'qib beradilar. «Nega ismim..?» sahifasi menga yoqib qoldi. O'zim yozishni bilmaganim uchun oyimlarga maktub yozib berishlarini iltimos qildim.

Mening ismim Ravshanbek. Bu ismni menga dadajonim qo'yganlar. Tug'ilganimda ota-onam juda ham suyunib ketishibdi. Dadamlar: «Hayotimda quvonchli kunim yana bir kunga ko'paydi. Shu yorug', ravshan kunlarim abadiy bo'lsin. Zurriyodim ham o'z ismiga monand nurli, istarali, fayzli bo'lib kamolga yetsin», deya ismimni Ravshanbek qo'yibdilar.

Ravshanbek SHAVKAT o'g'li,  
Yakkasaroy tumanidagi  
487-bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi.



## MASHHURLAR ISMI



O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmadning umr yo'ldoshlarini ismi Saida bo'lib, ular juda matonatli, aqli, sabr-bardoshli ayol bo'lgan ekanlar. Qatag'on yillarida umr yo'ldoshlari Said Ahmad qamoqqa tushib qolganlarida, Saida opa juda ko'p qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar. Ular barcha qiyinchiliklarni chidam bilan yengganlar. Bu haqda yozilgan asarni o'qigan ota-onam Said Ahmad va Saida Zunnunova orasidagi sevgi, vafo va sadoqatga havas qilib mening ismimni Saida qo'yishgan.

Saida so'zi arab tilida beka, xo'jayin degan ma'noni anglatadi. Men ham kelajakda hamma havas qilgudek uy bekasi bo'lishni orzu qilaman. Bo'sh vaqlarimda esa she'r yozishni mashq qilaman.

Saida JO'RAYEVA, o'quvchi.

## SEVIMLI SHOIRAM

O'zbekiston Xalq shoiri Hamid Olimjonning rafiqalarining ismi Zulfiyaxonim, onalarining ismlari esa Komila aya bo'lgan ekan. Mening ham oyijonimning ismlari Komila. Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim baxt va sevgi kuychisi bo'lishgan. Hatto ularni Layli va Majnun, Farhod va Shirinlar qatoriga qo'shsa bo'ladi.

Zulfiyaxonim juda go'zal ayol bo'lganlar. Ular 80 yoshdan oshganlarida vafot etganlar. Xalqning sevimli shoirasi, iftixori bo'lganlar. Qalbida she'riyatga qiziqishi bo'lgan jajji qizaloqlar «Zulfiyaxonim» mukofotiga sazovor bo'lishni orzu qiladilar.

Men tug'ilganimda qosh-ko'zlarim qop-qora bo'lgan ekan. Zulf degani qosh-ko'zlari qop-qora degan ma'noni anglatar ekan. Shuning uchun mening ismimni Zulfiya deb qo'yishgan.

Zulfiya JO'RAEVA, o'quvchi.

## ORASTALIK JONU-DILIM

Ismim -Durdona. Buvijonim va bobojonim tug'ilganimda shunday ism qo'yishgan ekan. Dur - qimmatbaho tosh bo'lib, u juda qadrlanarkan. Nabiramiz ham ana shunday bebaho, qadrlil fazilatlariga ega bo'lib, unib-o'ssin, deyishar ekan. Har kuni hovlimiz atrofini chinnidek qilib supurar ekanman, kattalarning menga mehr bilan qarayotganining guvohi bo'laman. Hamisha buvijonim va bobojonimning pok niyatlarini amalga oshirishga intilaman.

Durdona JALILOVA,  
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi  
165- maktabning 5 -«G» sinf o'quvchisi.

Maktab sahnasi uchun

## SINOV KUNLARI

Miraziz A'ZAM

(Davomi.Boshi o'tgan sonlarda).

**O'tkir:** Meniki bir so'm ellik tiyinlik. So'rab nima qilasan? Mana Ortiqnikini so'ra. Otello hayotda shunaqasini kiygan bo'lsa kerak. Qara, oq-qora, yo'l-yo'l. Naq, Dezdemona bilan Otelloning ramzi, deysan.

**Ortiq:** Ja gapni olasan-da... Nimani so'ramoqchi eding?

**O'tkir:** Mana shu oq-qora, yo'l-yo'l trusiging necha so'mlik?

**Ortiq:** Nimaydi?

**O'tkir:** Shu hammamizning trusigimizni sotib, bir nima olsak devdim... (Bolalar xoxolab kulishadi). Yo'q, hazil, sen trusigingni necha so'mga olgansan?

**Ortiq:** Ikki so'mga!

**Muzaffar Burro:** Senikiyam Qodirnikidan arzon ekan. Hey... hey, Kichkinaning trusigi necha pullik ekan? So'ra-chi, so'ra! Sen so'ra! (O'tkirni tortqilaydi.)

**O'tkir:** Kichkina!

**Kichkina:** Nima?

**O'tkir:** Trusiging necha pullik?

**Kichkina:** Nimaydi?

**O'tkir:** Shunchaki... Hammamizning trusigimiz qanchadanligini bilmoqchimiz. (Kuladi).

**Kichkina:** Haa... Mening trusigim ellik tiyinlik.

**Muzaffar Burro:** Nima qilasan bo'lmagan gapni gapirib? Men aniq bilaman: bitta magazindayam ellik

tiyinlik trusik yo'q. Bo'lmagan. Bo'lmaydi ham!

**Kichkina:** Yo'q, rost. Faqat biz magazindan tayyor trusik olmaganmiz. Bilasanmi? Magazindan qolgan-qutgan gazmollar bo'ladi. Laxtak do'konlarida sotiladi. Opam ellik tiyiga bo'lak-bo'lak, sal kam bir metr laxtak satin olib, menga trusik tikib berganlar! Senlar - u, pulni havoga sovrudiganlar! Qovoqni ishlatmasdan, beshta trusik o'rniga bitta trusik olib kiyasanlar! Oilaga yordam berish yo'q!

**Ortiq:** To'g'ri aytadi bu Kichkina. Eng arzoni shu Muzaffarning trusigi bo'lsa, buning puliga ham ikkitasini olib, ortganiga Muzaffarning kinoteatrida ikki marta kino ko'rsa bo'larkan. Mana buni iqtisod desa bo'ladi!

**O'tkir:** Bo'пти! Bo'пти! Cho'milish qolib ketmasin! Men boshladim!

**O'tkir suvga o'zini otadi. Ketidan Qodir ham Qichqiriqqa kalla tashlaydi. Suvning shapillashlari eshitiladi.**

**Qodir va O'tkir birpasda u qirg'oqqa chiqadilar.**

**So'ng yana suvga kalla tashlab bu qirg'oqqa chiqib keladilar.**

**O'tkir:** Muzday ekan-a!

**Qodir:** Eh, mazza-a!

**Endi Qichqiriqqa Ortiq bilan Muzaffar Burro kalla tashlaydilar.**

**Yana suvning shapillashlari eshitiladi. Ular ham qirg'oqqa**

**chiqadilar. Bir oyoqda sakrab-sakrab, quloqlarini cho'zib, quloqqa kirgan suvni chiqarishga harakat qiladilar. Keyin yana suvga sakrab, qirg'oqning berigi tomoniga chiqib keladilar.**

**Ortiq:** Odanning joni kirdi.

**Muzaffar Burro:** Jannatning suvi...

**Kichkina qirg'oqqa kelib taraddudlanib turadi, ammo sakramaydi. Qodir unga yaqinlashib keladi.**

**Qodir:** Ha, qo'rqaysanmi?

**Kichkina:** Yo'q...

**Qodir:** O'zing suzishni bilasanmi?

**Kichkina:** Bilaman...

**Qodir:** Cho'milganmisan?

**Kichkina:** Buvimning bog'ida katta hovuz bor. Har tomoni yetti-sakkiz metr keladi. Suv odamni ko'madi. O'sha hovuzda har kuni cho'milaman. Beshyog'och istirohat bog'idagi ko'lda ham ko'p cho'milganman. Yuz metrdan ortiq joygacha suzib borib, suzib qaytganman.

**Qodir:** Oqar suvda cho'milganmisan?

**Kichkina:** Yo'q.

**Qodir:** Oqar suvda suzish ko'lda yo hovuzda suzishdan osonroq.

**Kichkina:** Bilaman.

**Qodir:** Unda nega qo'rqaysan?

**Kichkina:** Qo'rqayotganim yo'q.

**Kichkina Qichqiriqqa kalla tashlash uchun ortga tislanaadi.**

**Qodir (baqiradi):** Mo'ljalni to'g'ri ol! Narigi qirg'oqqa chiqish uchun

so'qmoq bitta. O'sha joydan chiqolmasang, suvdan chiqadigan boshqa joy yo'q.

**Kichkina (Qichqirib javob qaytaradi):** Ko'rib turibman!

**Kichkina suvga kalla tashlaydi.**

**To'rt og'ayni qirg'oqdan uni kuzatib turishadi.**

**Ammo Kichkina suvdan tez chiqa qolmaydi.**

**Oqim uni so'qmoq oldidan nariroqqa surib ketganini ko'radilar.**

**Qodir:** Ahmoq! Qo'rqasang-cho'milma, dedim. So'qmoqning oldidan chiq, dedim. Gapimga kirmadi.

**Qodir o'zini suvga otadi. Ketidan Muzaffar Burro sakraydi.**

**Ular oqimda Kichkinani quvib ketadilar.**

**Ortiq:** Eh, sharsharagacha qirg'oqqa chiqolmasa toshdan toshga uriladi!

**O'tkir:** Yugur, Ortiq! Anavi majnuntolga chopdik. Uning shoxidan ushlab olib, ularning yo'lini to'sib turamiz.

**Ortiq va O'tkir qirg'oq bo'ylab yuguradilar va majnuntolning shoxini ushlab suvga tushadilar. Bir-birlarining qo'llarini tutganicha oqib kelayotgan uch og'ayniga qo'l uzatib turadilar.**

**Qodirning ovozi:** Qo'rqma, Kichkina... Qimirlasang bo'ldi... Qimirla... Qimirla! Qo'lingni menga ber!

(Davomi bor).

SHU GULZAMIN,  
MOVIYGINA OSMON BAG'RI  
VATANIM

-Men Aziz Ahmedov 216-maktabda tahsil olaman. Oilada 6 nafar farzandmiz. Algebra, geometriya fanlarini yaxshi ko'raman. Ustozimiz Mavluda opaning berayotgan saboqlarini jon-qulog'im bilan tinglayman. Mashinalarga qiziqishim bois, katta bo'lganimda albatta mashina tuzatuvchi usta bo'laman. O'zimning ham mashinam bo'ladi.

Mehr

- «Bizning Hamza tumanimizda 208 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ana shunday tadbirlarni tez-tez o'tkazib turishni oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bugungi o'tkazilayotgan tadbirimiz nihoyasida tumanimizdagi Respublika Reabilizatsiya Markazidagi bolajonlarga ham xayriya sovg'alari ulashamiz. Tadbirimizni 30- mehribonlik uyida ham davom ettirib 160 dan ziyod tarbiyalanuvchilarga sovg'alar ulashamiz. Qalbi quyoshdek iliq mehrga to'la sahovatpesha mahalladoshlarimizdan Ahmadjon Nazarov, mahalla oqsoqoli Sobirxoji Komilov, Yangiobod mahallasi xotin-qizlar kengashi raisi Muhabbat Rahimova, Usmon Nosir mahalla xotin-qizlar qo'mitasi raisi Xolida Ismoilovalar ana shunday tadbirlarimizga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqda», - deydi biz bilan suhbatda tuman hokimi o'rinbosari, xotin-qizlar qumitasi raisi vazifasini bajaruvchi Gavhar Alimova.

**Yulduz Hamdamova 227-maktabda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari:**

- Maktabimizda 1225 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Ular orasida boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ham bor. Ta'lim maskanimizda tahsil olayotgan ushbu o'quvchilarga har tomonlama yordam beramiz. Bola ko'ngli juda nozik, uni o'ksitmay tarbiyalash biz o'qituvchilarning mas'uliyatli vazifamizdir.

Buyuk kelajak sari odimlayotgan ona diyorimizda istiqomat qilayotgan qalbi daryo insonlarning mehr-muruvvati, sahovati hamisha tahsinga sazovordir. Kuni kecha Poytaxtimizning Hamza tumanidagi Tarnovboshi guzarida tuman hokimligi, xotin-qizlar qo'mitasi, «Parkent», «Aviasozlar» bozorlari va Hamza tumani Madaniyat ishlari bo'limiga qarashli «Zamondosh» madaniyat uyi kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlari uchun «Har bir farzandga mehr - e'tibor» mavzusida o'tkazilgan xayriya tadbiri ham buning yaqqol ifodasidir. Bu yerga yig'ilgan 150 dan ziyod turli yoshdagi bolajonlarning yuzi-ko'zidagi shodlikni ko'rib, beixtiyor «Sen hali ulg'ayib, Alpomishdek jasur yigit, Barchinoy singari oqila qiz bo'lib kamolga yetasan»-deging keladi.

-Ismim Albina, 307-maktabning 5-sinfida a'lo va yaxshi baholarga o'qiyman. O'zbek tiliga juda qiziqaman, dugonalarim ham ajoyib o'zbek qizlari. O'zbek maktabida tahsil olayotganimdan juda xursandman. Otam olamdan o'tgan. Katta bo'lganimda albatta shifokor bo'laman. Istagim - otalar bu hayotdan erta ko'z yummasin. Hammaning otasi hamisha uylarining to'rida o'tirsin.

-Men Zebo Zokirova 226-maktabning 6-sinfida o'qiyman. Orzularim bir olam. Hamisha onajonim orzu qilganidek yetuk inson bo'lishga intilaman.



-Ismim Rashid, ushbu tadbir menga juda yoqdi. Oilada ikki nafar farzandmiz, otam vafot etganlar. O'qishga juda qiziqaman. Oyog'im nogironligi tufayli 170 - maktabdan o'qituvchi kelib uyda o'qitadi. Katta bo'lsa, kompyuter maktabida o'qiyman.

Ha, qalbi g'ururga to'lib so'zlayotgan bu tengdoshlaringizning orzulari olam-jahon. Ularning kelajagi uchun qayg'urayotgan, mehr-muruvvatini ayamayotgan sahovatpesha insonlar hamisha ko'payaversin!

Jamila ERDONOVA.

-Ilmira opa, avvalo bolaligingiz haqida gapirib bersangiz...

-Men 1969 yilda Bo'stonlikda tug'ilganman. Hamid Olimjon nomli 12-o'rta maktabni bitirganman.

-Aktor bo'laman deb o'ylaganmisiz?

-Oilada beshta qiz edik. Dadamlar meni ko'proq shifokor bo'lishimni xohlaganlar. Maktabni bitirib, hatto Tibbiyot Oliyogiga hujjatlarimni topshirganman. O'qishga kira olmaganman. Bir kuni gazetaning so'nggi betida Madaniy Oqartuv texnikumiga hujjatlar qabul qilinayotganini o'qib qoldi. Rejissura bo'limiga hujjatlarimni topshirdim. Buni qarangi, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdim. Maktabda bo'ladigan tadbirlarda qatnashib turardim. 4-sinfda o'qib yurgan kezlrimda «San'at bayrami»da qo'shiq kuylaganman. Shundan keyin men qo'shiqchi bo'laman, degan umidda yurardim. Keyinchalik 7-sinfda o'qib yurgan kezlrimda 8-mart bayramlarida o'sha zamondagi ayollarning paranji tashlash marosimini sahnada ko'rsatib berish epizodlarida chiqqanman. Keyin «Boy ila xizmatchi» spektaklida Jamila, «Qutlug' qon» spektaklida Unsin obrazini yaratdim. Aktyorlik mahoratim o'shanda shakllangan bo'lsa, ajabmas.

-Maktab davringizda sodir bo'lgan qiziqarli voqealardan birini aytib bersangiz?

-Bir kuni rus tili ustozimiz bizga «Kim bo'lsam ekan?» degan mavzuda insho yozdirdilar. Inshoimizni og'zaki gapirib berish navbati menga kelganida, o'rnimdan turib, ruschalab: «Men katta bo'lganimda bulbulga o'xshab kuylashni xohlayman», degandim. O'shanda sinfdoshlarim ustimdan rosa kulishgandi. Shu gapimni hozirgacha gapirib, kulib yurishadi.

-Ilmira opa, bolalar sizni «Charxpalak» filmi orqali tanib qolishgan. Filmga qanday kelib qolgansiz, shu haqda gapirib bersangiz.

-Bu filmga men tasodifan kelib qolganman. «Charxpalak» 1997 yilda suratga olina boshlagan. U paytda men Muqimiy teatrida xorda ishlardim. Bir kuni eshigimda kichkina qog'ozcha turibdi. Ochib o'qisam, meni shu rolga ijro etish uchun sinovga chaqirishibdi. Maryam obrazi o'zi kichkinagina

Mehmonxona

Aziz o'quvchilar! «Yoshlar» telekanali orqali namoyish etilgan «Charxpalak» videofilmini bir necha marta sevib tomosha qilgansiz-a? Undagi eng jozibador, eng mas'uliyatli rolni, ya'ni lo'li Maryam obrazini yaratgan san'atkor Ilmira Rahimjonova bilan yaqindan tanishishni xohlaysizmi? Unda ular bilan o'tkazgan qiziqarli suhbatimizni o'qib chiqing.

## BULBULDEK KUYLAGIM KELADI



epizod edi. Ya'ni, 7-seriyasida Egamqulni hayotga qaytarish epizodini yaratib berishim kerak edi. Sinovdan muvaffaqiyatli o'tgach, bu rolni kengaytirib berishdi. O'sha kundan boshlab men Maryamning ichki dunyosini, boshidan o'tgan kechinmalarini ruhiyatimga singdirib bordim. Lo'lilarga o'xshab gapirishni 8 oy mobaynida o'rgandim.

-San'atkor bo'lish niyatidagi bolajonlarga nimalar degan bo'ladingiz?

-San'atkor, aktyor bo'lish uchun inson fidoyi bo'lishi kerak. Aktyor hammadan ajralib turishi, bu degani u o'zini tuta bilishi, did bilan kiyinishi kerak. Chunki uni xalq taniydi. Undan nimadir olishni xohlaydi. Ba'zilar esa unga taqlid qilishadi. U avvalo o'z ishini sevishi, unga berilgan obrazni ichki kechinmalari, orzu-umidlari haqida o'ylab,

bir so'z bilan aytganda, o'sha rolning ichiga kirib ketishi kerak. Shundagina u xalq sevgan, uni nazariga tushgan aktyor bo'la oladi.

-Hozir nima ishlar bilan mashg'ulsiz? Kelajakda sizdan qanday filmlarni kutamiz?

-Men Rustam Sa'diyev rejissyorlik qilayotgan «Muhabbat sinovlari-2» filmiga 2-rejissyorlik qildim. Uni efirga berilishini kutaymiz. Rejissyorlik sohasida ham mahoratimni sinab ko'rmoqchiman. Suratga ham tushib turibman. Yaqinda «Qonli olishuv» nomli filmga Osiyo Valiyeva rolini yaratdim. Bu film yanvar oylarida ekran yuzini ko'radi, degan niyatdamiz.


-O'zbekiston bolalariga gazetamiz orqali nimalar degan bo'ladingiz?

-Bolalarni juda ham yaxshi ko'raman. Ilgarilari tarbiyachi, keyin maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaganman. Shuning uchun ularga tarbiyali, intizomli bola bo'lib faqat «a'lo» baholarga o'qishlarini tilab qolaman. Yana intiluvchan bo'lishsin. Chunki inson intilsagina orzu-niyatlariga yetadi.

-Mazmunli suhbatimiz uchun rahmat.

Ozoda **TURSUNBOYEVA** suhbatlashdi.

Ilmira Rahimjonova  
yoshlar telekanali orqali namoyish etilgan  
«Charxpalak» videofilmini bir necha marta sevib tomosha qilgansiz-a?  
Undagi eng jozibador, eng mas'uliyatli rolni, ya'ni lo'li Maryam obrazini yaratgan san'atkor Ilmira Rahimjonova bilan yaqindan tanishishni xohlaysizmi?  
Unda ular bilan o'tkazgan qiziqarli suhbatimizni o'qib chiqing.



## Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

**Bo'yiga:** 1. Tirik organizmlarning asosiy xususiyatlaridan biri. 2. Voris mulki. 3. Musiqa yo'nalishi. 4. O'quv quroli. 7. Suvda ham, quruqlikda ham yashaydigan hayvon. 10. Sut mahsuloti. 13. Donli ekin. 15. Nomus. 19. Ko'mak. 22. Eski transport turi. 24. Shartnoma tuzish uchun beriladigan rozilik.

**Eniga:** 1. Xatarli hayvon. 5. Sof. 6. Harbiy xizmatchi. 8. ... Amir Temur. 9. Bilim. 11. Futboldagi holati. 12. ...ishora. 14. Pardoziy buyumi. 16. Negroid, mongoloid, yevropoid - bular... 17. Yozma ish. 18. Ushalmagan orzu. 20. Baliq tutish moslamasi. 21. O'yin turi. 23. Qadimgi ayollarning yopinchi'i.

Tuzuvchi: Gulnoza **RO'ZIYEVA**,  
Chilonzor tumanidagi  
181-maktabning  
9- «A» sinf o'quvchisi.

O'sha yilning o'lin bo'limi  
**TONG**  
yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

**Bosh muharrir**  
o'rinbosari:  
**Feruza JALILOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
**Umida ABDUAZIMOVA**

(Bosh muharrir),

Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama

MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»

nashriyot uyi.

Gazeta

«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi  
kompyuter bo'limida  
terib sahilalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«O'zbekiston»  
nashriyoti matbaa  
bazasida chop etildi.

Adadi - 10519

Korxonalar manzili:

700129,

Toshkent,

Navoiy

ko'chasi, 30.

Buyurtma № 1 - 23

Gazetani

Otabek

ESHCHANOV

sahifaladi.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Bizning elektron

pochtamiz:

ijod@uzpak.uz

Ro'yxatdan o'tish

tartibi № 000137

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi,

30-uy.

Tel: 144-63-08

144-62-34

Tel./ faks:

(99871) 144-37-24